


## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 30 424 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 20 911 ta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

**2026- yil 1- yanvar holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 15 663 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,7 % ni tashkil etdi.

**2026- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da**



2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (45,9 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,9 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.


**2026- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 54 118,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda, Yashash va ovqatlanish xizmatlariga (36,9 %), savdo xizmatlariga (18,8 %), transport xizmatlariga (14,6 %), moliyaviy xizmatlariga (10,3 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, % da**



2025- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 2 530,9 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2025- yil yanvar-sentabr) choragiga nisbatan xizmatlar hajmi 4 711,0 mlrd. so'mga ko'paydi.

Joriy yilning (yanvar- sentabr) oldingi choragida nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga Yashash va ovqatlanish xizmatlari (6 976,8 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (3 468,5 mlrd. so'mga), transport xizmatlar (2 485,1 mlrd. so'mga), hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (518,5 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilning mos davrida Yashash va ovqatlanish xizmatlar – 16 779,2 mlrd. so'm, savdo xizmatlar – 8 460,5 mlrd. so'm, transport xizmatlari 6 011,4 mlrd. so'm va moliyaviy xizmatlar – 4 347,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>54 118,0</b>	<b>113,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1802,7	118,1
moliyaviy xizmatlar	5557,3	126,5
transport xizmatlari	7922,2	120,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	6886,8	118,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	19981,2	107,4
savdo xizmatlari	10173,1	113,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	752,4	107,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1696,0	119,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	745,3	117,4
ijara xizmatlari	710,4	118,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1355,5	111,3
shaxsiy xizmatlar	1325,8	110,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	350,7	104,4
boshqa xizmatlar	1745,4	113,8

Eng yuqori o‘shish sur‘atlari moliyaviy xizmatlar 126,5 %, Ta’lim sohasidagi xizmatlar 119,3 % va Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 118,1 % , qayd etildi.

Nisbatan pastroq o‘shish sur‘atlari Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 110,4 %, Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlari 107,6 % hamda Savdo xizmatlar 113,8 % da kuzatildi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining beshdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlari tashkil etdi. 2025- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 18,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni yashash va ovqatlanish xizmatlari 36,9 %, transport xizmatlari 14,6 % egallaydi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 10 173,1 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari 1712,6 mlrd. so‘mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste’mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

### Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



**ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 12,6**



**avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar 16,4**



**chakana savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari 71,0**


Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 71,0 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,6 % ga yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 16,4 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

### 2025- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da




2025- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 1 802,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sishi 437,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 71,0 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 99,0 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 1,0 % ga to'g'ri keladi.


## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 5 557,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 126,5 % ni tashkil etdi.

## 2025- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (94,2 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter

texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1 696,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 119,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 19 981,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 36,9 % ga yetdi.


### **2025- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>54 118,0</b>	<b>113,6</b>
Qarshi sh.	8 895,5	123,2
Shahrisabz sh.	1 586,8	115,4
G'uzor	1 124,4	114,7
Dehqonobod	1 023,2	114,9
Qamashi	2 134,7	115,2
Qarshi	2 274,9	117,3
Koson	1 819,1	116,3
Kitob	2 294,4	116,2
Mirishkor	1 457,7	114,5
Muborak	1 643,2	117,1
Nishon	1 395,8	115,8
Kasbi	1 651,4	116,9
Ko'kdala	527,9	116,5
Chiroqchi	953,5	114,3
Shahrisabz	1 630,7	114,7
Yakkabog'	1 468,6	116,4
Taqsimlanmagan hajm	22 236,3	109,7

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (8 895,5 mlrd. so'm), Kitob tuman (2 294,4 mlrd. so'm), Qarshi tuman (2 274,9 mlrd. so'm), Qamashi tuman (2 134,7 mlrd. so'm) va Muborak tuman (1 643,2 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Ko'kdala (527,9 mlrd. so'm), Chiroqchi (953,5 mlrd. so'm), Dehqonobod (1023,2 mlrd. so'm), va G'uzor (1 124,4 mlrd. so'm) da kuzatilmoqda.


**2025- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahar – 118,0 %, Qarshi tumani – 117,3 %, Kitob tumani – 116,2 Kasbi tumani 116,9 % va G'uzor tumanida 114,7 % kuzatildi.

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda Respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**




- |           |           |         |            |               |
|-----------|-----------|---------|------------|---------------|
| Boshqalar | Qarshi sh | Kitob   | Qarshi     | Qamashi       |
| Koson     | Kasbi     | Muborak | Shahrisabz | Shahrisabz sh |
| Mirishkor | Yakkabog' | Nishon  | G'uzor     | Dehqonobod    |
| Chiroqchi | Ko'kdala  |         |            |               |

Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (16,4 %), Kitob tumani (4,2 %), Qarshi tuman (4,2 %) va Koson tumani (3,4 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Ko'kdala (1,0 %), Chiroqchi tumani (1,8 %) va Dehqonobod (1,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati**  
(2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun)




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi kuzatilmoqda. 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan hajm 2 530,9 ming so'mga oshib 14 713,6 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida yuqori ko'rsatkichga ega Qarshi shahrida 29 300,2 ming so'm, Muborak tumanida 17 098,7 ming so'mni tashkil etti.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (119,7 %), Qarshi tumanida (113,1 %), va Dehqonobod tumanida (111,3 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Chiroqchi (110,4 %), Guzor (111,0 %), Mirishkor (111,0 %) va Chiroqchi (110,4 %) tumanlarida qayd etildi.

## 2025- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (952,4 mlrd. so'm), Qarshi (717,7 mlrd. so'm) va Kitob (599,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala (171,9 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 10 173,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,8 % ni tashkil etdi.


**2025- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Qarshi sh. (128,9 %), Shahrisabz sh. (121,8 %) va Muborak tumanlarida (118,6 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Mirishkor tumani (106,2 %) va Qarshi tumanida (106,7 %) qayd etildi.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'rtasida Qarshi shahri (9,4 %) va Qamashi (7,3 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Ko'kdala tumanida (1,7 %) va G'uzor (2,7 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 7 922,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,3 % ni tashkil etdi.

### 2025- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi sh (627,7 mlrd. so'm) va Kitob tumanida (623,1 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Shahrisabz sh (60,7 mlrd. so'm) qayd etildi.